

“BOBURNOMA” ASARIDA DORUL-HARB VA DORULISLOM IZOFIY BIRIKMALARNING INGLIZCHA TALQINI

Zayniyeva Yulduz Faxriddinovna
“DIPLOMAT UNIVERSITY”
O’qituvchisi

Annotatsiya. O’zbek klassik adabiyoti namunasi bo’lgan “Boburnoma” asari O’rta Osiyo xalqlari haqida eng qimmatli ma’lumotlarni o’z ichiga olgan, Boburdan qolgan eng muhim ijodiy merosdir. Ushbu asar bir necha asrlardan beri o’rganib kelinishiga qaramasdan, haliham uni to’liq o’rganib bo’lindi deb ayta olmaymiz. Ushbu maqolada “Boburnoma” asarida ishlatilgan dorulharb va dorulislom izofali birikmalar ma’nosi va ularning inglizcha tarjimasini ko’rib chiqamiz.

Tayanch tushunchalar: “Boburnoma”, izofa, dorulharb, dorulislom, izofali birikmalar.

Annotation. The work "Baburnama", which is an example of Uzbek classical literature, contains the most valuable information about the peoples of Central Asia, and is the most important creative heritage left by Babur. Despite the fact that this work has been studied for several centuries, we still cannot say that it has been fully studied. In this article, we will consider the meaning of some isofas used in "Baburnama" and their English translation.

Key words: "Baburnama", isofa, dorulharb, dorulislom, isofal compounds.

Buyuk davlat arbobi, salohiyatli sarkarda, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarini tilshunoslik nuqtai nazaridan chuqurroq tadqiq qilish va turli xil tillarga tarjima qilish va uni butun dunyoga tanitish bugungi kunning dolzarb masalalaridandir. O’zbek tarjimashunosligida Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asaridagi izofiy birikmalar hozirgacha tarjima nuqtai nazardan tadqiq qilinmaganligini ko’rishimiz mumkin. “Boburnoma”da qo’llangan izofiy birikmalarning ingliz tilidagi tadqiqi ularning tarkibiy qismlarini mazmuniy, grammatik va funksional jihatdan tarjima qilinmagan.

Izofa (forscha: 'qo'shimcha'), shuningdek, ezafe, izafet, izafe, izafat, izafa va izofa (tojikcha: izofa,), ba'zi Eron tillarida uchraydigan grammatik qo'shimchadir. Shuningdek, ikki so'zni bir-biriga bog'lovchi turkiy va hind kabi fors ta'siridagi tillar tarkibida ko'rishimiz mumkin. Fors tilida u bog'langan so'zlar orasidagi urg'usiz qisqa unli -e yoki -i (-ye yoki -yi) dan iboratdir. Izofa fors tilida quyidagicha talqin qilinganini ko'ramiz. Ega: Bradir Maryam baradar-e Maryam “Maryamning ukasi” (u olmosh egaligiga ham tegishli bo'lib, Bradir man “birodarim” degan ma'noni bildiradi, lekin nutqda egalik qo'shimchalarini qo'llash ancha keng tarqalgan.

Sifat-ism: baradar-e bozorg "katta aka" Ikkita otni bog'lash: *khiâbân-e Tehrân* "Tehron ko'chasi"¹ Forscha grammatik atama izofa arabcha idâfa ("qo'shimcha") tushunchasidan o'zlashtirilgan bo'lib, u ikki yoki undan ortiq otlarni bog'lashga xizmat qiladi. Biroq, eron tilidagi izofa grammatik birlikni hatto olmoshni bildirsa, arab tilida idâfa so'zi aslida ikki so'z o'rtasidagi munosabatni bildiradi. Arab tilida idâfa konstruktsiyasidagi ikkita so'z ega-egasi qurilishiga aytiladi. Izofa – arabcha “qo’shish”, “bog’lash”, “birlashtirish” ma’nolarini ifodalab, fors, arab va ba’zi turkiy tillar grammatikasida aniqlanmish bilan undan keyin joylashgan aniqlovchini bog’laydigan urg’usiz unsur deb ta’riflanadi [Abdullayev1973, 53]. O‘zbek tilining besh jildli izohli lug‘atida qo‘shimcha qilib quyidagilar yozilgan: bog‘lanishning fors tilidan o‘zlashgan shunday turi o‘zbek tilida ko‘pincha undoshlardan keyin “i”, unilardan keyin “yi” keltirish bilan mavjud bo‘ladi.²

Arab tili darsliklarida arabiy izofaning ikki turi mavjudligi haqida ma'lumotlarni Amonov M fan doktorlik uchun yozilgan dissertatsiyalarida shunday tarzda berib o'tdi.

1) haqiqiy izofa (ma'nosi va aytilishi bo'yicha bo'lgan izofa) arab tilida مَعْنَوِيَّةٌ إِضَافَةٌ (izofatun ma'naviyyatun) deb aytiladi va qaratqich-qaralmish munosabatini ifodalaydi;

2) shakliy izofa (izofa shaklida aytiladigan murakkab sifat) arab tilida لَفْظِيَّةٌ إِضَافَةٌ (izofatun lafziyyatun) deyiladi. Shaklan izofiy birikma bo'lsa-da, mazmunan izofiy birikma emas. Shakliy izofa – izofa shaklidagi murakkab sifatdir. Shakliy izofani ba'zan “lafziy izofa” deb ham aytiladi. Bunga sabab – u shakl jihatdan, ya'ni talaffuzda izofali birikma, ma'no jihatdan esa murakkab sifatdir. Bunday izofada uning aniqlanmishi (ya'ni qaralmishi) sifat yoki sifatdosh bilan ifodalangan bo'lib moslashmagan aniqlovchi (ya'ni qaratqich) bilan murakkab sifat tuzib keladi. U doim aniq holatda bo'ladi.

“Boburnoma”da qo'llanilgan arabcha izofali birikmalar ham ikkiga ajratib o'rganilgan. “Boburnoma”da, “Dorulxilofa”, “**Dorulharb**”, “**Dorul-islom**” haqiqiy izofalar turiga kiritilgan

Shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning mashhur “Boburnoma” asarida qo'llangan izofali birikmalarining xususiyatlari va tarjima tahlili hali ham to'liq ochib berilmagan. Asardagi forsiy, arabiy va turkiy izofalarni ajratib birma-bir o'rganar ekanmiz, ularning ma'nolari yanada yaxshiroq tushunishni boshlaymiz. Lekin juda ko'p marta dunyo tillariga tarjima qilingan asar inglizcha tarjimada izofiy birikmalar qanday aks etgan degan masala qo'yiladi.

“Boburnoma” asarining 1948 yilda chop etilgan nusxasi bilan 1960 yilda chop etilgan nusxasi solishtirib ko'rilsa, izofiy birikmalar soni kamayganini kuzatish

¹ Abrahams, Simin (2005). Modern Persian: A Course-Book. London: RoutledgeCurzon. [ISBN 0-7007-1327-1](https://doi.org/10.1080/00071720500046111).

² O'zbek tilining besh jildli izohli lug'ati

mumkin. Biz quyida asarning P.Shamsiev tomonidan tayyorlangan 1989 yil “Yulduzcha” nashriyotida chop etilgan nusxasi bilan V.Rahmon tomonidan tayyorlangan 2008 yil “O‘qituvchi” nashriyotida chop etilgan nusxasidagi izofiy birikmalarni qiyoslab ko‘rsatadi

1989 yil “Yulduzcha nashriyotida chop etilgan nusxadagi izofiy birikmalar	2008 yil “O‘qituvchi” nashriyotida chop etilgan nusxada izofiy birikmalarning ifodalanishi
dorul-harb (250 b)	urush mamlakati (204 b)
dorul islom (250)	islom davlati (204 b)

Yuqoridagi jadvaldagi misollardan ko‘rinib turibdiki, asarning “Yulduzcha” nashriyotida chop etilgan nusxasidagi deyarli barcha erkin izofiy birikmalar “O‘qituvchi” nashriyotida chop etilgan nusxada o‘zbekchalashtirib berilgan.

Asarda tarkibida uy, saroy ma'nosini anglatuvchi *دار* dor so‘zi mavjud bo‘lgan bir qator izofali birikmalar uchraydiki, birikma tarkibidagi so‘zlardan biri hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llaniladi, ikkinchisi qo‘llanilmaydi: *dorulharb* (250-bet) – kofirlar yurti, mamlakati; *dorul-islom* (250-bet) – islom mamlakati. “X.Nazarovanning “Zahiriddin Muhammad Bobir asarlari uchun qisqacha lug‘at”ida *dorulharb* izofiy birikmasining izohi berilgani holda *dorul-islom* birikmasi ma'nosi ochiq qolgan. *Dorulharb* – 1)kofirlar mulki; 2) jang maydoni ³F. Ishoqovning “Boburnoma” uchun qisqacha izohli lug‘at”ida ham ushbu izofiy birikmaning mazkur ma'nolari izohi berilgan, biroq *dorul-islom* birikmasi ma'nosi berilmagan. ⁴Odatda eski o‘zbek tilida *dorulharb* izofiy birikmasi *dorul-islom* birikmasining antonimi sifatida qo‘llaniladi. Ushbu izofiy birikmalar mazmun jihatidan antonim ekanligi Islom ensiklopediyasida ham ko‘rsatib o‘tilgan: *DOR ul-ISLOM* (“Islom hudududi”) – dor ul harbga zid ravishda mamlakat hayoti to‘laligicha shariat yo‘li bilan tartibga solib turiladigan, musulmon hukmdorlari qo‘l ostidagi barcha musulmon mamlakatlarning umumlashma belgisi⁵. *DOR ul-HARB* (“urush hududi”) – dor ul-sulh tashqarisida joylashgan nomusulmon mamlakatlar; ular musulmon faqihlari tomonidan musulmonlar bilan urush holatida turgan mamlakatlar, ular o‘rtasida harbiy harakatlar olib borilayotgani esa, vaqtinchalik sulh deb qaralgan. ⁶

Endi esa “Boburnoma” asari asliyatida va Susana Beverij tarjimasida [1921] qanday berilganini ko‘rib chiqamiz.

³ Nazarova X. Zahiriddin Muhammad Bobir asarlari uchun qisqacha lug‘at. – Toshkent: Fan, 1972. – B.38

⁴ Ishoqov F. “Boburnoma” uchun qisqacha izohli lug‘at. – Andijon, 2008. – B.49.

⁵ Islom Ensiklopediyasi. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004. – B.73..

⁶ Islom Ensiklopediyasi. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004. – B.73.

Тарих тўққуз юз ўн тўртта Тенгри таоло инояти била Чандерийким, неча йил эди, дорулхарб бўлуб эди.Мединий Рав отлик Раана Сангаанинг улуғ ва муътабар кишиси тўрт-беш минг кофир била анда эди.

Chanderi had been in the *daru'l-harb* for some years and held by Sanga's highest-ranking officer, Medini Rao, with four or five thousand infidels, but in 934[1528], through the grace of God,

Ko'rib turganimizdek, Dorul-harb izofa birikmasi transliteratsiya qilingan so'zma so'z tarjima qilinmagan.

Бир –икки ғарийда зўрлаб олиб , кофирларни қатли ом қилиб, дорулислом қилдим, нечукким, шархи мазкур бўлгусидир.

I took it by force within a ghari or two, massacred the infidels, and brought it into the *bosom of Islam*, as will be mentioned.

Bu satrlardan Islom diyori tarjida tarjima qilingan. "Yulduzcha" nashriyotida chop etilgan nusxasidagi o'zbekcha tarjimasini bilan deyarli bir xil.

"Boburnoma" asari hali to'liq o'rganilmagan jihatlari talaygina. M.Amonovning izofalar ma'nolarini o'zbek tilida qanday o'chgan bo'lsalar ushbu motivatsion ruh ushbu izofalar ingliz tilida qanday ko'chgan ekan degan savolni keltirib chiqaradi va tarjimalarini o'rganishga undaydi. Izofiy birikmalarni tarjima qilish asosida uning testologik lug'atini tuzish g'oyasi ham o'z o'zidan yuzaga keladi. Ularni kelajak avlodlarga yetkazish, mazmuni noma'lum bo'lgan so'zlarni etimologik nuqtai nazardan bo'lsa-da, izofalarni o'ziniyoq tadqiq etish juda ko'p masalani oydinlashtirib berganini ko'rdik, lekin ular inglizchada unday emas. Shuning uchun "Boburnomadagi izofalar inglizcha tarjimasini jiddiy o'rganish muhim vazifalardan biri deb o'ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Amonov M. "Boburnoma" dagi izofiy birikmalarning lisoniy tadqiqi". Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD): Farg'ona.–2020.
2. Abdullayev F, Eshondadayev D. O'zbek tilida tojikcha izofali birikmalar // O'zbek tili va adabiyoti, 1973, №1. – B. 40-45.
3. Beveridge A.S. Baburname. – 1921.
4. Islom Ensiklopediyasi. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004. – B.73..
5. ¹ Ishoqov F. "Boburnoma" uchun qisqacha izohli lug'at. –Andijon, 2008. – B.49
6. Nazarova X. Zahiriddin Muhammad Bobir asarlari uchun qisqacha lug'at. – Toshkent: Fan, 1972. – B.38
7. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. –2002.
8. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. –2008
9. Xolmonova Z. "Boburnoma" leksikasi. – Toshkent: Fan, 2007. – B.64.
10. Abrahams, Simin (2005). Modern Persian: A Course-Book. London: RoutledgeCurzon. [ISBN 0-7007-1327-1](https://doi.org/10.1080/00071226.2005.10557111).